

Teatrga talabalar tashrifi

Muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan ilgari surilgan 5 tashabbus bugungi kunda yoshlar hayotida muhim ahamiyat kasb etmoqda. Jumladan, birinchi tashabbus yoshlarning musiqa, rassomlik, adabiyot, teatr va san'atning boshqa turlariga qiziqishlarini oshirishga, iste'dodini yuzaga chiqarishga xizmat qiladi. Bu borada institutimizda ham samarali ishlar amalga oshirilmoqda.



Jumladan "Qishloq va suv xo'jaligi energiya ta'minoti" fakultetining 5430200-Qishloq xo'jaligini elektrlashtirish va avtomatlashtirish ta'lim yo'nalishi 4 kurs 402a, 404-guruh talabalari bilan "Elektrotexnologiyalar va elektr jihozlaridan foydalanish" kafedrasida dotsenti O'.Xaliqnazarov Muqimiy nomidagi teatrga tashrif buyurishdi. Teatr ma'naviyat o'chog'i deb bejiz aytilmaydi. Xaqiqatdan ham teatrga borib biz uchun zarur bo'lgan hayotiy ta'lim-tabiyani oldik desak xato bo'lmaydi. Ushbu teatrdagi "Asl xazina" nomli spektakl namoyish etildi. Bu spektaklni talabalar maroq bilan tomosha qilishdi va katta taassurotlarga ega bo'lib qaytishdi.

**"Elektrotexnologiyalar va elektr jihozlaridan foydalanish" kafedrasida dotsenti O'.Xaliqnazarov
axboroti**

TIQXMMI matbuot xizmati